

Sabohat Azimjonova (1923-2001)



Sabohat Azimjonova (1923-2001)

Sabohat Azimjonova (1923 yil dekabr, Toshkent — 2001 yil 26 aprel) — sharqshunos olma, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (2000), tarix fanlari doktori (1969). Toshkent pedagogika institutini tamomlagan (1942).

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida katta ilmiy xodim (1949), institut direktori (1950—77), bo'lim boshlig'i (1977—95), yetakchi ilmiy xodim (1995 yildan) bo'lib ishlagan.

Zahmatkash olma 150 dan ortiq ilmiy maqola va risololar muallifidir. Asosiy ilmiy ishlari Boburning Kobul va Hindistondagi faoliyati, O'rta Osiyo xalqlarining o'rta asrlarda qo'shni xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro siyosiy va iqtisodiy munosabatlariga bag'ishlangan.

Asarlari Eron, Afg'oniston, Hindiston, Frantsiyada chop etilgan. Boburning qizi Gulbadanbeginning «Humoyunnomma»sini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib, Toshkentda (1959, 1977) va frantsuz tilida Parijda, (1996) nashr ettirgan.

Sabohat Azimjonova bir qator xalqaro ilmiy kongresslarda ilmiy ma'ruzalar qilgan. Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti (1989), Javoharla'l Neru xalqaro mukofoti (1993) laureati.

2023-09-08 21:10:47